buyurish tavsiya etiladi: spironolakton 25-150 mg. Diuretiklarni buyurishning barcha holatlarida qondagi elektrolitlar darajasini, shuningdek, buyrak funksiyasi holatini diqqat bilan kuzatib borish kerak.

-Yurak glikozidlari O'G da o'ng qorincha qisqaruvchanligining pasayishi va yurak yetishmovchiligining rivojlanishi eng muhim mexanizmlaridan biridir, shuning uchun O'G bilan og'rikan bemorlarga inotrop dorilar ko'rsatilishi mumkin. O'G bilan og'rikan bemorlarga digoksinni tomir ichiga yuborish yurak qisqaruvchanligining biroz oshishiga yordam beradi va qon plazmasidagi norepinefrin darajasining sezilarli darajada pasayishi bilan birga keladi. Yurak glikozidlar o'tkazuvchanlik tezligini sekinlashtirish uchun O'G bilan og'rikan bemorlarda bo'lmacha fibrillatsiyaning kamdan-kam hollarda buyurilishi mumkin. O'G bilan og'rikan bemorlarda dobutamin faqat kasallikning terminal bosqichida qo'llaniladi va ba'zi hollarda vaziyatni barqarorlashtirishga imkon beradi.

-Kalsiy antagonistlari, O'G patogenezinining vazokonstriktiv nazariyasi o'pka arteriyalari va arteriolalarida gipertrofiyasi mavjudligiga, shuningdek vazodilatatorlar buyurilganda o'pka tomirlarining qarshiligining pasayishiga asoslanadi. Shubhasiz, O'G bilan og'rikan bemorlarning faqat ozchiligida, vazodilatatorlarni, xususan, kalsiy antagonistlarini buyurganda, o'pka arteriyasidagi bosimning klinik jihatdan sezilarli darajada pasayishiga erishish mumkin.

O'G bilan og'rikan bemorlarda yuqori dozalarda qo'llaniladigan kalsiy antagonistlarining ijobiy klinik va prognostik ta'siri bir markazli, tasodifiy bo'lmagan tadqiqotlarda ko'rsatilgan. Hozirgi vaqtda O'G ni davolash uchun digidropiridin kaltsiy antagonistlari va diltiazem tavsiya etiladi.

Preparatni tanlash dastlabki yurak urish soni bilan belgilanadi. Yurak urishi bir daqiqada 80 dan kam bo'lgan bemorlarga digidropiridin kaltsiy antagonistlari tavsiya etiladi. Amlodipin o'ng qorincha yurak yetishmovchiligi belgilari bo'lgan o'pka gipertenziyasi bilan og'rikan bemorlar uchun tanlangan doridir.

Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi va yuqori o'pka gipertenziyali bemorlarni kanservativ davolashda so'nggi yillarda bir necha istiqbolli dorilar paydo bo'ldi, ularning samaradorligi o'pka gipertenziyasi bo'lgan bemorlarda allaqachon tasdiqlangan. Ushbu dorilarga prostatsiklin analoglari (iloprost, treprostenil, beroprost), endotelin retseptorlari antagonistlari (bozentan) kiradi [92]. O'pkaning interstitsial fibrozi fonida o'pka gipertenziyasi bo'lgan bemorlarda barqaror prostatsiklin analogi iloprost va fosfodiesteraza 5-turi ingibitori yani sildenafilning yuqori samaradorligi ko'rsatilgan [93].

Biroq, bo'lmachalar fibrilliyatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan o'pka arterial gipertenziyasi bo'lgan bemorlarni sog'ligini nazorat qilish asosan rasmiy ma'lumotlarga emas, balki mutaxassislarning klinik tajribasiga asoslanadi [62]. Jumladan Eyzenmenger sindromida og'iz orqali antikoagulyant terapiyadan foydalanish: o'pka trombozi va insultning uchrash chastotasi kamayishi haqida xabar berilgan, ammo bemorlarda shu bilan birga qon ketish xavfi ham ortadi [128]. Maxsus dori terapiyasi sifatida bozentan Eyzenmenger sindromi bo'lgan bemorlarda qo'llanilganda, bemorlarni jismoniy mashqlarga tolerantligi yaxshilashganligi va o'pka gipertenziyasi kamayganligi ko'rsatib o'tilgan [63].

Tug'ma yurak kasalligi bo'lgan yuqori o'pka gipertenziyali bemorlarda epoprostenolni tomir ichiga yuborish, gemodinamikaga va jismoniy mashqlarga bardoshlilikiga foydali ta'sir ko'rsatishi haqida xabar berilgan, ammo bemorlarda paradoksal emboliya va sepsis xavfi yuqori bo'lishi ko'rsatib o'tilgan [139].

Fosfodiesteraza 5-toifa ingibitorlari, sildenafil va tadalafil bilan alohida tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular o'pka gipertenziyasi bilan asoratlangan yurak- qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda qulay funksional va gemodinamik natijalarni ko'rsatadi. Fosfodiesterazalar oilasi bu siklik nukleozidlar 3'5'-adenozin monofosfat (sAMF) va 3'5'-guanozin monofosfat (sGMF) ning gidrolizlanishini katalizlovchi fermentlardir: [60]. Odamning o'pka tomirlaridagi qon bosimi 1, 3, 4 va 5 turdagi fosfodiesteraza faolligiga bog'liq [104]. Fosfodiesteraza 5turi bu fermentning yurak-qon tomir tizimidagi

asosiy shaklidir. 5-toifa fosfodiesteraza mavjudligi o'pka va koronar arteriyalar, venoz tomirlar hujayralarida, shuningdek, kardiomiotsitlarda topilgan. Turli xil fosfodiesteraza 5 ingibitorlarining eng muhim farmakodinamik xarakteristikasi ularning selektivligidir [68, 75, 160].

Sildenafil 5-turdagi selektiv fosfodiesteraza ingibitoridir. Bu, birinchi navbatda, angina pektorisini davolash sifatida o'rganildi (uning ta'siri nitratlarga o'xshaydi, ularning ta'sir qilish mexanizmidan nitrat oksidi tizimi ham vositachilik qiladi). Sildenafil sezilarli antianginal ta'sirlar topilmadi, ammo tadqiqotda ishtirok etgan erkaklar preparatning erektil funktsiyaga ijobiy ta'sirini qayd etdilar. Bu sildenafilning yangi ko'rsatkichlar uchun keyingi qo'llanilishiga sabab bo'ldi, hozirgi vaqtda preparat "Viagra" savdo nomi ostida keng tarqalgan [152].

Sildenafilni qo'llashning yana bir va biroz kutilmagan tomoni bu preparatning yana bir qo'shimcha xususiyatga ega ekanligi - o'pka arteriyasidagi bosimni kamaytirish bilan bog'liq. Sildenafilning bu xususiyati birinchi marta ingliz olimlari tomonidan kashf etilgan, ko'ngillilar ustida o'tkazilgan tajribalarda preparat o'pka tomirlarida bosimning oshishiga to'sqinlik qilishi ko'rsatilgan [70]. Bemorlarda o'tkazilgan boshqa tadqiqotlar (16 bemorni o'z ichiga olgan) sildenafilni qabul qilish paytida o'pka gipertenziyasi bo'lgan bemorlarda o'pka arteriyasidagi bosimning pasayishini kuzatilgan [112, 120, 145].

Michelakis va boshqalar og'ir birlamchi va ikkilamchi o'pka gipertenziyasi bo'lgan bemorlarda enteral og'iz orqali qo'llab sildenafilning ta'sirini o'rganib chiqdi. Mualliflar o'pka tomirlari qarshiligining sezilarli darajada pasayishi va yurak indeksining o'rtacha o'sishini ta'kidladilar va sildenafilning NO bilan kombinatsiyasi bu foydali ta'sirlarni kuchaytirishi kuzatildi.

Carroll W.D: va boshqalar, bemorlardagi o'pka gipertenziyasini faqat sildenafil bilan yoki ingalatsiyalangan prostatsiklinlar bilan birgalikda muvaffaqiyatli davolash holatlarini ko'rib chiqib, uchta bemorda ushbu

preparatning samaradorligini o'rganishdi. Barcha holatlar muvaffaqiyatli bo'ldi va sezilarli klinik belgilarni yaxshilanishga olib keldi. Qabul qilganda 60 daqiqadan keyin preparatning boshlang'ich dozasi o'pka arteriyalarida bosimning 22% ga pasayishi, o'pka tomirlar qarshiligining 44% ga kamayishi qayd etildi [125].

Sildenafilni qo'llashda bemorlarni jismoniy mashqlar tolerantligiga ta'sirini o'rganish ushbu dorilarni qabul qilgandan keyin kamayganini ko'rsatmadi. Bundan tashqari ba'zi ishlarda hatto mashqlarga bardoshlilikining biroz yaxshilanishi qayd etilgan [71, 155, 158];

Fosfodiesteraza 5-toifa ingibitorlarining qon bosimiga ta'siri yetarlicha batafsil o'rganilgan, chunki gipotenziya dastlab qon tomirlarini kengaytiruvchi dorilar qatoriga kiruvchi ushbu dorilar guruhining eng xavfli yamon ta'siri deb hisoblangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sildenafildan foydalanish sistolik va diastolik qon bosimining o'rtacha 10 mm Hg dan ko'p bo'lmagan pasayishi olib kelarkan [80].

Yurak etishmovchiligi bo'lgan bemorlarda ishlatilganda koronar arteriyalarning endotelial disfunktsiyasini tuzatishdan tashqari, o'pka gemodinamikasi yaxshilanishiga olib keldi [110];

Yuqorida aytilganlarning barchasidan kelib chiqib FDE 5-toifa ingibitorlarining ta'siri xilma-xil degan xulosaga kelish mumkin. Va xususan, fosfodiesteraza 5-toifa ingibitori sildenafildan foydalanish o'pka arteriyalarida bosimning pasayishi bilan birga tomirlar qarshiligining kamayishi olib keladi. Shuning uchun o'pka gipertenziyasi davolashda eng ko'p ushbu preparatni qo'llash, bemorlarda kasallik belgilarini tez bartaraf bo'lishi va asoratlarni oldini olishga erishiladi shu jumladan bo'lmachalar fibriliyasi va yuqori o'pka gipertenziyali bemorlarda.

Sildenafil hozirda Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Evropa Ittifoqi mamlakatlarida tug'ma yurak kasalligi bilan bog'liq bo'lgan o'pka gipertenziyasi uchun maxsus dori terapiyasi uchun tasdiqlangan va belgilangan.

Shunday qilib, zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki,

bo'lmachalar fibriliyasiyasi va yuqori o'pka arterial gipertenziiyasi bilan asoratlangan bemorlarda kasallikni invaziv bo'lmagan tashxislash va davolashni zamonaviy o'pka vazodilatatorlarini qo'llash orqali o'pka tomirlarida qon aylanish holati terapiya va kardiologiyada dolzarb muammo hisoblanadi. O'pka arterial gipertenziiyasi bilan asoratlangan bo'lmachalar fibriliyasiyasi bo'lgan bemorlarni davolash uchun sildenafilni qo'llash istiqbolli xisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu tadqiqot natijalari orqali o'pka gipertenziiyasi bo'lgan bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

II BOB. “KLINIK MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARIGA UMUMIY TAVSIF”

2.1. Tadqiqotga olingan bemorlar haqida ma'lumot

Bizning tadqiqotimiz uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasi va Orolbo'yi mintaqasi, ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 2020–2022-yillar mobaynida davolangan, bo'lmachalar fibrillayatsiyasining doimiy turi va o'pka gipertenziyasi bilan og'rigan bemorlarning 110 nafari olingan. Barcha kuzatuvga olingan bemorlarning yoshi 60-64 yoshni tashkil etadi. O'rtacha yoshi 62 yoshni tashkil etdi. Barcha bemorlarda bo'lmachalar fibrillayatsiyasi va o'pka gipertenziyasiga xos bo'lgan klinik belgilar: umumiy xolsizlik- 69 ta bemorda (62,8%), tez charchash- 20ta (18,09%), xansirash - 7 ta bemorda (6,66%), yurak soxasidagi noxushlik xissi- 5 ta (4,76%), yurak notekis urishiga- 8 ta (7.62%), bosh aylanishi- 3 ta (2,73%), bemorda kuzatildi. Tekshiruv va tadqiqot doirasidagi 110 nafar bemorlarni shartli ikki guruhga bo'ldik. Nazorat guruhi sifatida 30 ta bo'lmachalar fibrilliyatsiyasi bor o'pka gipertenziyasi yo'q amaliy sog'lom insonlar olindi. Barcha bemorlarda instrumental, laborator va klinik biokimyoviy tekshiruvlardan o'tkazilib tanlab olindi va guruhlariga bo'lindi. Birinchi guruhga 55 nafar bemorni o'z ichiga oladi va bu bemorlarga an'anaviy davolash tavsiya qilingan. Birinchi guruhda bemorlarning o'rtacha yoshi $60,0 \pm 1,65$ yoshga teng. Ikkinchi guruhga esa 55 nafar bemor kiritilgan bo'lib, bu bemorlarga an'anaviy davo bilan birga davolash tartibi sifatida nebivalol va sildenafil kombinatsiyasi berildi. Bu guruhdagi bemorlarning o'rtacha yoshi $64,3 \pm 2,4$ yoshga teng. Tekshirilgan bemorning jins bo'yicha taqsimoti 2.2-jadvalda keltirilgan.

2.1-jadval


Kuzatuvdagi bemorlarning jins bo'yicha nisbati

№	Jinsi	Birinchi guruh	Ikkinchi guruh
1.	Ayol	28 (51%)	27 (49%)
2.	Erkak	27(49%)	28(51%)

2.2.Foydalanilgan tekshiruv usullari xarakteristikasi

2.1-sxema

TADQIQOT DIZAYNI



Tadqiqotga olingan barcha bo‘lmachalar fibrillayatsiyasi va o‘pka gipertenziyasi bilan kasallangan bemorlarga an’anaviy qo‘llab kelinayotgan davo muolajalari buyurildi. Doimiy an’anaviy davo sirasiga gipotenziv vositalari, antikoagulyant dori vositalari, diuretiklar, yurak glikozidlari va antiagregant davo buyurildi.

Ikkala guruhimizdagi bemorlarda davoning birinchi, o‘ttizinchi va to‘qsoninchi kunlari laborator va klinik biokimyoviy tekshiruvlar (umumiy qon tahlili, qon ivish vaqti, qonni biokimyoviy tahlili, koagulogramma, TQFV, XMM) o‘tkazildi. Instrumental tekshiruvlardan exokardiografiya va xolter bo‘yicha EKG monitorlash bajarildi. Olingan natijalarga asoslanib o‘zgarishlar o‘rganildi. Tadqiqot dizayni **2.1-sxemada** to‘liq keltirilgan.

2.2.1.Laborator tekshiruvlarni o‘tkazish usullari

Klinik va laboratoriya tekshiruvi umumiy qabul qilingan va maxsus tadqiqotlar to‘plamini o‘z ichiga oladi:

- Klinik tekshiruv an’anaviy sxema bo‘yicha so‘rov, organlar va tizimlar bo‘yicha bemorlarni umumiy tekshirish, shikoyatlarni batafsil ko‘rib chiqish bo‘yicha tavsiyalarni hisobga olgan holda xalqaro ekspertlar diagnostikasi.

- Laboratoriya tekshiruvi: umumiy qon tahlili, koagulogramma, qon bioximik tekshiruvi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi;

Tekshiruv uchun qon ertalab och qoringa olingan. Kapillyar qonda gemoglobin, eritrotsitlar, leykotsitlar, trombotsitlar, leykotsitlar formulasi darajasini aniqlash amalga oshirildi.

Gemostaz tizimining holatini baholash uchun biz qon tomir-trombotsitlar va koagulyatsion gemostazni o‘rgandik. Gemostaz tizimini o‘rganishda quyidagi tamoyillar kuzatildi - qonni quruq igna bilan kubital venadan och qoringa plastik naycha yordamida turniket va massajdan foydalanmasdan olish; qonni barqarorlashtirishga barqarorlashtiruvchi eritma (natriy sitrat 3,8%) va qonning gematokritni hisobga olgan holda to‘g‘ri nisbati bilan erishildi, qonni olish va uni o‘rganish orasidagi interval 1 soatdan oshmadi.

Gemostazni o'rganish quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Fonio (1980) bo'yicha qonning ivish vaqti (QIV) Usul 37°C haroratda kapillyar qonda tromb hosil bo'lish tezligini aniqlashdan iborat. Usulni bajarish uchun sizga soat oynasi, paxta momig'i, alkogol, skarifikator, sekundomer kerak bo'ladi. Teshikdan 3 tomchi kapillyar qon olinadi (birinchi tomchi paxta bilan chiqariladi) soat oynasiga. U 37°C da bir stakan suv ustiga qo'yiladigan Petri idishiga (havo bilan aloqa qilmaslik uchun) joylashtiriladi.

Fonio mikrometodiga ko'ra normal qon ivish vaqti 5-10 minut. Antiagregant va antikaugulyant terapiya bilan davolash paytida qon ivish vaqtining sezilarli darajada uzayishi kuzatiladi.

-Koagulogramma a) QQV. Usulning prinsipi nafaqat kontakti, balki koagulyatsion omillarning fosfolipid (tromboplastin) faollashuvini standartlashtirish sharoitida plazma ivish vaqtini aniqlashdir. Buning uchun plazmaga kaolin va sefalin aralashmasi (tromboplastin faollashtiruvchisi), shuningdek, kalsiy xlorid qo'shiladi va plazma ivish vaqti sekundomer bilan aniqlanadi.

b). Plazma fibrinogen - klinik amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan fibrinogenni aniqlashning gravimetrik usuli hisoblanadi. Gravimetrik usul 0,5 ml plazmaga trombin aralashmasi qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan trombnini quritish va tortishdan iborat. Trombin 0,05 ml 5% li kalsiy xloridni 0,05 ml tromboplastin bilan aralashtirish orqali olinadi. Sog'lom odam plazmasida fibrinogen miqdori 2 - 4 g / l ni tashkil qiladi.

Trombotsitlarning yopishqoqligini aniqlash. Trombotsitlarning yopishqoqligini aniqlashning ko'plab usullari orasida shisha tolada ushlab turishni aniqlash usuli eng keng tarqalgan. Usul venoz qondagi trombotsitlar sonini ma'lum tezlikda shisha tolali pigtail orqali o'tishdan oldin va keyin hisoblashga asoslangan. Tadqiqot uchun 0,2 ml yangi olingan sitratli qon olinadi. U shisha tolali pigtail orqali o'tkaziladi. O'tkazilgan qonning birinchi tomchisidan 0,1 ml olinadi va trombotsitlar hisoblanadi.

Materiallar: venoz qon,

Usul: Coag Chrom 3003 analizatorida.

Kvik bo'yicha protrombin (protrombin kompleks omillarining me'yordan% miqdori) kalibrlash plazmasining o'lchangan protrombin vaqti bilan solishtirganda bemorning plazmasidagi protrombin kompleks omillarining faolligini aniqlash imkonini beradi. Bunday holda, hisoblash kalibrlash plazmasining bir nechta suyultirilishidan foydalangan holda tuzilgan protrombin vaqtining protrombin kompleks omillarining % tarkibiga bog'liqligi egri chizig'iga muvofiq amalga oshiriladi. Natijalarni taqdim etishning bu usuli protrombin indeksini ayniqsa past diapazonda hisoblashdan ko'ra aniqroqdir. Kvik va protrombin indeksiga ko'ra protrombin normal qiymatlar oralig'ida bir-biriga mos kelishi mumkin. Bilvosita antikoagulyantlarni qabul qiladigan bemorlarni boshqarish uchun tavsiya etilgan past qiymatlar sohasida ushbu testlarning samaradorligi farqlanadi. 50-60% protrombin indeksi Kvik bo'yicha 20-40% protrombinga mos kelishi mumkin. Shuning uchun, antikoagulyant terapiyani kuzatishda, tadqiqotlar bitta usul yordamida, laboratoriyada o'tkazilishi kerak. Kvik bo'yicha protrombinni hisoblash hozirda umumiy qabul qilingan usul hisoblanadi.

XMM protrombin testi natijalarini taqdim etishning qo'shimcha usuli bo'lib, JSST ekspert qo'mitasi, Tromboz va gemostaz bo'yicha xalqaro qo'mita va Xalqaro qo'mita tomonidan bilvosita antikoagulyantlar bilan terapiyani kuzatish uchun tavsiya etilgan. Gematologiyada standartlashtirish uchun. XMM protrombin nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni sinov namunasi PT ning birlamchi xalqaro referent tromboplastin yordamida olingan normal plazma PT ga nisbati. Boshqa tromboplastinlar yordamida olingan natijalarni solishtirish uchun ma'lum bir tromboplastinning xalqaro sezuvchanlik indeksini bilish kerak.

- Qondagi umumiy xolesterin miqdorini aniqlash birlashtirilgan umumiy xolesterin siyanid usuli yordamida aniqlandi.

2.2.2. Exokardiografik tekshirish

Instrumental tekshiruv hajmi o'pka gipertenziyasi darajasiga bog'liq. O'pka gipertenziyasi va bo'lmachalar fibrilliyatsiyasi bo'lgan barcha bemorlar umumiy

qabul qilingan usul bo'yicha exokardiyografiya tekshiruvidan o'tkazildi. 2-darajali o'pka gipertenziyasi bo'lgan bemorlar tavsiya etilgan texnikaning samaradorligini tasdiqlash uchun ingibitor FDE-5 bilan sinovidan o'tkazildi. O'pka gipertenziyasi 3-4-daraja bilan asoratlangan yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlar, o'pka qon tomirlaridagi o'zgarishlarning aniqlash uchun 100% kislorod ingalatsiyasi bilan sinovidan o'tkazildi, bu davolash rejasini aniqlash uchun muhimdir. Bo'lmachalar fibriliyatsiyasi va yuqori o'pka gipertenziyasi bilan asoratlangan bo'lgan bemorlar tekshiruv natijalariga ko'ra davolash taktikasi belgilandi.

Exokardiyografik tekshirish usuli

Exokardiografiya SONOSCAPE S20 ultratovushli uskunasida 3,5 Mgsli datchikda an'anaviy Simson texnikasidan foydalangan xolda amalga oshirildi.

Tadqiqot M-, B- va D-rejimlarida amalga oshirildi, to'qimalarning Dopplerografiyasi spektral va rangli versiyalarda qo'llanildi.

Yurak kameralarining asosiy o'lchamlari va hajmini, tomir diametrini, gemodinamik parametrlarni o'lchash uchun standart usullar qo'llanilgan va Amerika Exokardiyografiya Jamiyati [96] tavsiyalariga muvofiq pozitsiyalar ishlatilgan. Barcha tadqiqot natijalari raqamli shaklda qayd etildi, onlayn tarzda qayta ishlandi va qisman keyingi ishlov berish va tahlil qilishdan o'tkazildi. Quyidagi ko'rsatkichlar baholandi:

1. Yurakning chap qismlarining morfofunktsional parametrlari:

- aortaning diametri (Ao, mm);
- chap bo'lmacha oldingi-orqa o'lchami; (mm);
- chap bo'lmacha lateral-medial o'lchami: (mm);
- chap bo'lmacha yuqori-pastki o'lchami (mm);
- chap bo'lmacha hajmi (ml);
- chap qorincha oxirgi-diastolik o'lchami / (mm);
- chap qorinchaning lateral-medial o'lchami (mm);
- chap qorincha oxirgi sistolik o'lchami o'lchami (mm);
- chap qorincha oxirgi diastolik hajmi (ml);
- chap qorincha oxirgi sistolik hajmi (ml);

- chap qorincha zarba indeksi (ml/m²);
- chap qorincha qonning daqiqali hajmi (ml);
- chap qorincha sistolik indeksi (ml/m);
- chap qorincha chiqarish fraktsiyasi (%);
- qorinchalararo to'siq qalinligi (mm);
- chap qorincha orqa devor qalinligi. (mm);
- chap qorincha miokardining massasi
- chap qorincha miokardining massa indeksi

2. Yurakning o'ng qismlarining morfofunktsional parametrlari:

- M- va B-rejimlarda o'ng qorincha o'lchami (mm);
- O'pka arteriyasi va uning shoxlari o'lchami (mm);

■ Uch tabaqali klapn etishmovchiligi yani regurtitatsiya darajasini baholash (TP, daraja) rangli doppler yordamida o'ng bo'lmacha maydoniga regurtitatsiya oqimining foiziga ko'ra amalga oshirildi: 1-daraja - 20% dan kam. (kichik), 2-darajali - 20-40% (o'rtacha). 3-darajali - 40-80% (sezilarli), 4-darajali - 80% dan ortiq (og'ir);

■ o'ng qorinchadagi sistolik bosim (mm.Hg.ust) yoki o'pka arteriyasidagi sistolik bosim (O'ASQB). O'lchov texnikasi o'zgartirilgan Bernulli tenglamasidan foydalanishga asoslangan

Tenglamaga ko'ra. Bernoulli o'ng qorincha va o'ng bo'lmacha o'rtasidagi sistolik bosim gradientini uch tabaqali regurgitatsiya oqimining eng yuqori tezligidan foydalangan holda hisoblab chiqildi. O'ng qorinchadagi bosimni hisoblash uchun o'ng bo'lmachadagi bosim uch tabaqali qopqog'i bo'ylab bosim gradientiga qo'shildi. O'ng bo'lmachadagi bosim empirik ravishda pastki kava vena diametri va uning chuqur nafas olishga javobi bilan aniqlandi. Agar pastki kava vena 15 mm dan kam bo'lsa va u chuqur nafas bilan tushsa, u holda o'ng bo'lmachadagi bosim 5 mm Hg dan kam bo'ladi. Agar pastki kava vena diametri 25 mm gacha oshsa va 50% dan ko'proq kamaysa, u holda o'ng bo'lmachadagi bosim 5-10 mm Hg ni tashkil qiladi. Pastki kava venaning chuqur nafas olishga javobining pastki kava vena ning normal diametri bilan 50% dan kamroq pasayishi

o'ng bo'lmachadagi bosimi 10-15 mm Hg ga teng bosimni ko'rsatadi.

3. Klapanlar tolali halqalarining diametrlari:

- mitral (FK, MK mm);
- aorta (FK Ao, mm);
- Uch tabaqali (FK TK, mm);
- O'pka arteriya qopqog'i (FK O'A, mm).

4. O'pka arteriyasi diastolik bosimi (O'ADQB, mmHg) o'pka arteriyasi va o'ng qorincha (GD diast.) va o'ng bo'lmacha bosimi o'rtasidagi yakuniy diastolik gradientning yig'indisi sifatida hisoblangan: $O'ADQB = GD \text{ diast.} + PP \text{ dagi bosim.}$

O'pka gipeertenziyasi bo'lgan bemorlarda kamera hajmlari va chiziqli o'lchamlarning standart o'lchovlariga qo'shimcha ravishda, ko'pchilik ko'rsatkichlarning individual prognoz qilingan antropometrik me'yorlardan og'ishi baholandi:

- ko'tarilgan aortaning diametri;
- pulmoner arteriya va uning shoxlari diametri;
- atriya hajmi;
- chap qorincha ;
- klapanlarning tolali halqalarining diametrlari;
- chap qorincha devor qalinligi;
- chap qorincha miyokardining massasi;
- o'ng qorincha diametri.

Shaxsiy me'yorlar kompyuter ma'lumotlar bazasining regressiya tenglamalari bilan aniqlandi [21, 44].

Guruhlardagi bemorlarning ko'rsatkichlari exokardiyografiyaning barcha miqdoriy ko'rsatkichlari tadqiqot protokoli tomonidan avtomatik ravishda aniqlangan tegishli qiymatlarning foizi sifatida ifodalangan [33].

O'pka gipertenziyasining kuchayishi bilan chap qorincha sistolik funksiyasining buzilishini baholash uchun integral ko'rsatkich ishlatilgan - chap qorincha sistolik qayta qurish indeksi, bu formula bo'yicha hisoblab chiqilgan.

Ko'rsatkich chap qorincha devorlarining qalinligi, bo'shliq hajmining qisqarishi va shunga mos ravishda chap qorincha nasos funksiyasining pasayishi o'rtasidagi munosabatni miqdoriy jihatdan aks ettirdi. Nazorat guruhidagi indeksning normal qiymatlari -1,6-2,4, operatsiyadan keyingi erta davrda erta diastolik disfunktsiya mavjudligi bilan, o'rtacha ko'rsatkichlar $3,8 \pm 1$ va maksimal 6,6 ni tashkil etdi.

Barcha bemorlar yurakning ultratovush tekshiruvidan bir necha marta o'tkazildi. Bemorni kasalxonaga yotqizilgandan so'ng, o'pka gipertenziyasi darajasiga qarab yurakni qayta qurish baholandi. Exokardiyografiya o'pka gipertenziyasi uchun uzoq muddatli dori terapiyasi samaradorligini baholashda va tashxislashda ajralmas tekshiruv usuli bo'lgani uchun [161], tadqiqot iFDE qo'llanilib boshlanganidan 1-va 3 oydan keyin o'tkazildi.

Tinch holatda bo'lgan bemorlar EnVisor CY va iE-33 ultratovush apparatlari (Philips, Yaponiya) yordamida standart texnikaga muvofiq exokardiyografiyadan o'tkazildi, o'ng qorinchadagi sistolik bosim va qonning manyovr indeksi Qp/Qs baholandi. Tadqiqot davomida bemorlarning yurak urishi, qon bosimi va boshqalar o'lchandi. puls oksimetriya ma'lumotlariga ko'ra, qon kislorod bilan to'yinganligi, (SpO2) yordamida bemor monitori Life Scope i BSM-2301K (Nihon.Kohden, Yaponiya). Shundan so'ng bemorlar sildenafilni (Viagra, Pfizer) og'iz orqali 1,5 mg / kg dozada, lekin 50 mg dan ko'p bo'lmagan miqdorda qabul qilishdi.

Preparatni qabul qilganidan bir soat o'tgach, yurak-o'pka gemodinamikasining yuqoridagi ko'rsatkichlarini baholash bilan exokardiyografiya o'tkazildi. Bemorning klinik holati baholandi, yurak urishi, qon bosimi va qonning kislorod bilan to'yinganligi o'lchandi.

2.2.3. Xolter EKG monitoringi (yoki soddalashtirilgan - Xolter-EKG, Xolter) tekshirish

Kundalik Xolter EKG monitoringi (yoki soddalashtirilgan - Xolter-EKG, Xolter) bugungi kunda butun dunyoda keng tarqalgan funksional diagnostika usulidir. Xolter EKG monitoringi yurak mushaklarining ishi bo'yicha turli xil

ma'lumotlarni, shu jumladan eng kichik og'ishlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Norman Xolter, amerikalik biofizik, muhandis, ixtirochi (1914–1983) yurakning ayrim kasalliklarini aniqlash uchun elektrokardiografiya ko'rsatkichlarini uzoq muddatli qayd etishdan foydalanishni taklif qildi. Uning tashabbusi bilan ko'chma taqiladigan elektrokardiografning joriy etilishi yurak-qon tomir kasalliklari diagnostikasini yangi bosqichga ko'tardi.

Xolter EKG monitoringi tartibi oddiy va hech qanday jiddiy cheklovlersiz yoki murakkab tayyorgarlikni nazarda tutmaydi. Ba'zi noqulayliklar shundan iboratki, datchiklarni o'rnatganimizdan so'ng 24 soat davomida dush (vanna) qabul qilish imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun tekshirilayotgan odam ertalab Xolter diagnostikasi oldidan dush qabul qilishi kerak.

Monitor va elektrodnlarni o'rnatishning o'zi 10 daqiqadan ko'proq vaqtni oladi. 1980-yillardagi kassetali pleyerning yarmiga teng bo'lgan portativ magnitafon odatda bemor kamariga taqib olinadi. Yopishqoq elektrodnlari bo'lgan simlar undan yurak sohasiga o'tadi.

Batafsil ko'rsatmalar bajariladi, xususan bemordan shartlar kundaligini yuritish so'raladi: ovqatlanish vaqtini, uyquni, jismoniy faollik (yurish, yugurish va hokazo) yoki stressni qayd etish. Ulardan zaiflik, og'riq, bosh aylanishi, notekis yurak urishi va hokazo shikoyatlarni o'z vaqtida qayd etishga alohida e'tibor berish so'raladi.

Shundan so'ng, bemorga 24 soat davomida normal hayot kechirishga ruxsat beriladi. (Albatta, shifoxona sharoitida tekshirilgan bemorlarga boshqa tavsiyalar beriladi).

Bir kundan keyin monitor olib tashlanadi. Mutaxassis to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishni boshlaydi. Qurilmani olib tashlaganingizdan so'ng, ma'lumotlar kompyuterga - dekoderga kiritiladi.

Yozib olish bir nechta kanallar bo'ylab (2 dan 12 gacha) amalga oshiriladi. Biz 12 kanalli qurilmadan foydalanadik, chunki u maksimal aniq ma'lumot beradi.

12 kanalli Xolter monitori yordamida olingan ma'lumotlar yurak ritmining

turi va chastotasi haqida xabar beradi; yurak ritmi va o'tkazuvchanligi buzilishlarining mavjudligi va ularning chastotasi; qorincha komplekslari soni; patologik komplekslarning turi va miqdori; yurak urish tezligining o'zgarishi va boshqalar.

Natijalarni shifokor qurilma tomonidan uzatiladigan ma'lumotlarni tekshirishi va to'g'rilashi, raqamli ma'lumotlarni grafiklar va bemor tomonidan saqlanadigan kuzatuv kundaligi bilan tekshirishi kerak.

Natijalar diagnostika shifokori yoki bevosita kardiolog tomonidan yozilgan xulosa quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

ritm va yurak urishi haqida;

aritmia mavjudligi va turi haqida;

blokadaning mavjudligi va turi haqida;

yurak ishidagi pauzalar haqida;

miokarddagi impulslar manbai haqida;

yurak intervallaridagi o'zgarishlar haqida;

segmentlarning buzilishi;

aniqlangan buzilishlarning bemorning faoliyati va shikoyatlari bilan bog'liqligi to'g'risida;

yurak stimulyatori ishlashi haqida (agar mavjud bo'lsa). EKG monitoringi natijalarini ko'rib chiqqandan so'ng, shifokor tegishli davolanishni belgilaydi.

BTL CardioPoint 2.30.33006.0, DIAG 2.0.2.0, BTL-08 Holter 08AE00025794 modelidagi Xolter apparati orqali tekshiruv o'tkazildi. Bemorlarda 12 tarmoqda sutkalik EKG monitoring qilindi va asosiy ko'rsatkichlar sifatida maksimal, minimal va o'rtacha yurak qisqarishlar soni olindi.

2.3. Olingan natijalarni statistik qayta ishlash

Parametrlarni qayta ishlash Microsoft Office Excel-2010 yordamida ma'lumotlar seriyasining foizi (%) aniqlash orqali amalga oshirildi: arifmetik xatolik (M), o'rtacha arifmetik xatolik (m), namunaning medianasi, namunaning tarqalishi (maksimal va minimal qiymatlar). Ko'rsatkichlar orasidagi farqning

ishonchliligi T-talabalar mezoni yordamida amalga oshirildi. Korrelyatsiya tahlilida Person korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanildi va ishonchlilik jadvali bo'yicha uning ahamiyatliligi aniqlandi. Farqlar $P < 0,05$ da ahamiyatli deb topildi. Juda ishonchli $P < 0,001$ da, $P > 0,05$ da esa ishonchsiz deb topildi.

III BOB. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Bo‘lmachalar fibrillayatsiyasi bor, o‘pka gipertenziyasi bilan kasallangan bemorlarda kasallikning klinik xususiyatlari va diagnostik jihatlarni tahlil qilish

Bo‘lmachalar fibrillayatsiyasi va o‘pka gipertenziyasi bilan og‘rigan bemorlarda o‘tkazilgan obektiv, klinik va funksional tekshiruvlar ikkala guruhimizda ham o‘rtacha ko‘rsatkichlari bir biriga yaqin keldi. Bemorlarda so‘rab surishtirilganda asosiy shikoyatlar umumiy xolsizlik, xansirash, yurak urib ketishi va boshqa shikoyatlar bezovta qilishi aniqlandi va bu ko‘rsatkichlar tahlili o‘tkazildi (3.1- jadval).

Nazorat guruhimizdagi, bo‘lmachalar fibrilliyatsiyasi bilan kasallangan o‘pka gipertenziyasi aniqlanmagan bemorlarda umumiy xolsizlik 26 ta bemorda (86.7%), yurak notekis urishi 12 ta (40 %) bemorda, xansirash 14 ta (47%), bosh aylanishi 12(40%), bosh og‘rishi 9(30%) ni tashkil qildi.

Birinchi guruhimizdagi bemorlarda umumiy xolsizlik 48 ta bemorda (87.3%), ikkinchi guruhimizda 49 (89.1%) bemorlarda kuzatildi. BF va YO‘G bilan kasallangan bemorlarning asosiy shikoyatlaridan biri yurak notekis urishi birinchi guruhimizda 23 ta (41.8 %) bemorda, ikkinchi guruhimizda esa 24 ta (43.6%) bemorda kuzatildi. Birinchi guruhimizda yurakda noxushlik xissi 25 ta (45.5%) bemorda kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchi guruhimizda bu shikoyat 26 ta (47.3%) bemorlarda kuzatildi. Xansirash birinchi guruhimizda davodan oldin tekshiruvda 35 ta (63.6%) bemorda, ikkinchi guruhimizda 37 ta (67.3%) bemorda kuzatildi. Kuzatuv guruhlarimizdagi bemorlarda davolash davomida bemorlarni bezovta qilib kelgan shikoyatlarini o‘zgarishi o‘rganildi. Bunga ko‘ra quyidagi natijalarga erishildi (3.1-jadval).

Bo‘lmachalar fibrillayatsiyasi va o‘pka gipertenziyasi bilan og‘rigan ikkala guruhimizdagi bemorlarni kuzatish davomida davolashning birinchi kuniga nisbatan 30 va 90 kunida natijalar solishtirib o‘rganildi. Bunga ko‘ra birinchi

asosiy tavsiya qilingan davo qabul qilgan bemorlarda BF va O'Gda kuzatiladigan shikoyatlari dinamikada kamayishi kuzatildi. Ikkinchi guruhimizdagi bemorlarda ham davoning birinchi kuniga nisbatan davolashning 30 va 90 kuniga kelib shikoyatlari sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Ushbu natijalar 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

**Kuzatuvga olingan bemorlarning davolash davomida
shikoyatlarining o'zgarish dinamikasi**

№	Shikoyatlar	Nazorat guruhi n-30	I guruh n-55			II guruh n-55		
			1 kun	30 kun	90 kun	1 kun	30 kun	90 kun
1	Umumiy xolsizlik	26(86.7%)	P1 48±2.33 (87.3%)	37±2.1 (67,3%)*	28±2.4 (51%)**	49±2,38 (89.1%)	45±2,41 (81,8%)	41± 2,86 (74,5%)*
			P2	37±2.1 (67,3%)**	28±2.4 (51%)**		45±2,41 (81,8%)	41± 2,86 (74,5%)*
			P3 48±2.33 (87.3%)			49±2,38 (89.1%)		
2	Yurak notekis urib ketishi	12(40%)	P1 23± 2.4 (41.8%)	19±2,5 (67,3%)	18±2,8 (32,7%)	24±2,34 (43,6%)	21±2,36 (38,2%)	19±2,12 (34.5%)*
			P2	19±2,5 (67,3%)	18±2,8 (32,7%)		21±2,36 (38,2%)	19±2,12 (34.5%)
			P3 23± 2.4 (41.8%)			24±2,34 (43,6%)		
3	Xansirash	14(47%)	P1 35 ± 2.6 (63.6%)	30±2,4 (54,5%)*	22 ±2,2 (40%)**	37±2,21 (67.3%)	35±2,27 (63,6%)	31 ±2,52 (56.4%)*
			P2	30±2,4 (54,5%)	22 ±2,2 (40%)*		35±2,27 (63,6%)	31 ±2,52 (56.4%)


			P3	35 ± 2.6 (63.6%)*			37±2,21 (67.3%)**		
4	Tez charchash	12(40%)	P1	32 ± 2,4 (58.2%)	28±2,5 (51%)	17±2,6 (31%)**	34 ± 2,48 (61.8%)	32±2,38 (58,2%)	25 ± 2,36 (45.4%)*
			P2		28±2,5 (51%)	17±2,6 (31%)*		32±2,38 (58,2%)	25 ± 2,36 (45.4%)
			P3	32 ± 2,4 (58.2%)*			34 ± 2,48 (61.8%)**		

Eslatma: P1 * - ishonarlik darajasi davodan oldingi 1 kunga nisbatan olingan I va II guruh (*- P<0,05, **P<0,01, *** - P<0,001)


P2 * - ishonarlik darajasi ikkinchi guruhiga nisbatan olingan davolanishning 30-va 90 kuni.

P3 * - ishonarlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan olingan

Ikkala guruhimizdagi bemorlarda oʻzgarishlar dinamikasini solishtirib oʻrganilganda quyidagi natijalarga erishildi (3.1-jadval). Unga koʻra 1 chi asosiy guruhimizdagi bemorlarda davolashning 1 kuniga nisbatan davolashning 30 kunida umumiy xolsizlik 1,3 barobarga kamayib ishonchli oʻzgarganligi kuzatildi (P<0,05), yurak notekis urishi 1,21 barobarga (P>0,05), yurakda noxushlik xissi 1,25 barobarga kamayib ishonchli (P<0,05), xansirash 1,17 barobarga kamayib ishonchli (P<0,05), bosh aylanishi 1,14 barobarga kamayib ishonchsiz (P>0,05) , hamda bosh ogʻrishi 1,22 barobarga kamayib (P>0,05) ishonchsiz natijaga erishildi. Davolanishning 90- kunida umumiy xolsizlik 1,71 barobarga kamayishiga (P<0,01) , yurak notekis urishi 1,27 barobarga (P>0,05), yurakda noxushlik xissi 1,78 barobar (P<0,01), xansirash 1,59(P<0,01), bosh aylanishi 1,88 barobarga (P<0,01), hamda bosh ogʻrishi 1,83 barobarga (P<0,01) kamayishiga erishildi. Davodan oldingi holatga nisbatan davolashning 90 kuniga kelib shikoyatlar kamayishi ishonchli darajada oʻzgarishiga erishildi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Birinchi asosiy guruhlarimizda kuzatilgan shikoyatlar o'zgarishlar dinamikasi solishtirma baholash natijalari



3.2-rasm. Ikkinchi guruhlarimizda kuzatilgan shikoyatlar o'zgarishlar dinamikasi solishtirma baholash natijalari

Ikkinchi guruhimizdagi bemorlarda ham davoning birinchi kuniga nisbatan davolashning 90 kuniga kelib shikoyatlari sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Ushbu natijalar 3.2-jadvalda keltirilgan. Ikkinchi guruhimizda ham bemorlarda kuzatilgan shikoyatlar, davolash davomida kamayishiga erishildi. Unga ko'ra ushbu guruhimizdagi bemorlarda davoning 1 chikuniga nisbatan 30 kuni umumiy xolsizlik 1,09 barobarga, yurak notekis urishi 1,14 , yurakda noxushlik xissi 1,08 , xansirash 1,06 , bosh aylanishi 1,06 barobarga, va bosh og'rishi 1,5 barobarga fark qilib ishonchsiz natijalarga erishildi ($P>0,05$). Davolanishning 90- kunida umumiy xolsizlik 1,19 barobarga, yurak notekis urishi 1,26 , yurakda noxushlik xissi 1,37, xansirash 1,19 , bosh aylanishi 1,06 barobarga, va bosh og'rishi 1.06 barobarga kamayishiga erishildi ($P<0,05$) (3.1-jadval).

YO'G ortib borishi yuqorida keltirib o'tilgan shikoyatlarning kuchayib borishiga sabab bo'ladi va bu xolat bemorlarning xayot sifatining yomonlashishiga olib keladi. Biz kuzatuvimiz davomida nazorat guruhlarimizdagi bemorlarni bezovta qilib kelgan shikoyatlari kamayishiga erishish orqali ularni hayot sifati yaxshilanishiga ham erishdik.

Ikkala guruhdagi bemorlarda davodan oldin **biokimyoviy laborator tahlillar** natijalariga ko'ra quyidagi o'zgarishlar aniqlandi. Unga ko'ra birinchi guruhda xolesterinning o'rtacha miqdori $5,6\pm 0,10$ mmol/l, triglitserid $3,3\pm 0,13$ mmol/l, PZLP $3,4\pm 0,07$ mmol/l, YuZLP $1,1\pm 0,02$ mmol/l, miqdorda ekanligi aniqlandi. Ikkinchi guruhda esa umumiy xolesterinning o'rtacha miqdori $5,4\pm 0,12$ mmol/l, triglitserid $3,3\pm 0,12$ mmol/l, PZLP $3,4\pm 0,14$ mmol/l, YuZLP $1,1\pm 0,03$ mmol/l, miqdorda ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida umumiy xolesterinning o'rtacha miqdori $5,0\pm 0,18$ mmol/l, triglitserid $2,1\pm 0,10$ mmol/l, PZLP $3,0\pm 0,14$ mmol/l, YuZLP $1,1\pm 0,04$ mmol/l, tashkil qildi va bu ko'rsatkichlar 3.3-jadvalda berilgan.

Ikkala guruhdagi bemorlarda o'rganish davomida yuqorida berilgan ko'rsatkichlarda quyidagi natijalarga erishildi. Bunga ko'ra umumiy xolesterin miqdori quyidagi ko'rsatkichlarda aks etdi. Birinchi guruhimizda davolashdan

oldin $5,6 \pm 0,10$ mmol/l tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich davolashning 30 kuniga kelib $5,2 \pm 0,12$ mmol/l gacha, davolashning 90 kuni esa bu ko'rsatkich $5,1 \pm 0,12$ mmol/l gacha kamayishga erishildi. Bu guruhimizda umumiy xolesterin miqdori nazorat guruhimizdagi umumiy xolesterin miqdoriga nisbatan davolashning 30 va 90 kuni ishonchsiz darajada o'zgarishi kuzatildi ($P > 0,05$). 90 kunlik davolash davomida qondagi umumiy xolesterin miqdori guruhimizdagi umumiy xolesterin miqdoriga nisbatan, davolanishning 30- va 90- kunlari ishonchli darajada o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$).

3.3-jadval

**Guruhlardagi bemorlarda qonning biokimyoviy tahlili
ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar**

№	Ko‘rsat kichlar	Nazorat guruhi №30	I guruh n-55 (tavsiya qilingan davo)				II guruh n-55 (Standart davo)		
			Davodan oldin 1kuni mmol/l	Davo- ning 30 kuni mmol/l	Davo- ning 90 kuni mmol/l	Davodan oldin 1kuni mmol/l	Davo- ning 30 kuni mmol/l	Davo ning 90 kuni mmol/l	
1.	Umumi y xolesteri n	5,0±0,1 8 mmol/l	P1	5,6±0,1 0*	5,2±0,12	5,1±0,12	5,4±0,12 *	5,4±0,11*	5,2±0,1 0
			P2	5,6±0,1 0	5,2±0,12* *	5,1±0,12* *	5,4±0,12	5,4±0,11	5,2±0,1 0
			P3		5,2±0,12	5,1±0,12		5,4±0,11	5,2±0,1 0
2.	Triglitse rid	2,1±0,1 0 mmol/l	P1	3,3±0,1 3**	3,2±0,11* *	3,0±0,10* *	3,3±0,12 **	3,2±0,12* *	3,0±0,1 0**
			P2	3,3±0,1 3	3,2±0,11	3,0±0,10*	3,3±0,12	3,2±0,12	3,0±0,1 0*
			P3		3,2±0,11	3,0±0,10		3,2±0,12	3,0±0,1 0
3.	PZLP	3,0±0.1 4 mmol/l	P1	3,4±0,0 7*	3,4±0,07*	3,1±0,08	3,4±0,06 *	3,4±0,06*	3,2±0,0 6
			P2	3,4±0,0 7	3,4±0,07	3,1±0,08*	3,4±0,06	3,4±0,06	3,2±0,0 6

			P3			3,1±0,08	3,4±0,06	3,4±0,06	3,2±0,06
4.	YuZLP	1,1±0,04 mmol/l	P1	1,1±0,02	1,1±0,02	1,1±0,02	1,1±0,03	1,1±0,03	1,1±0,02
			P2	1,1±0,02	1,1±0,02	1,1±0,02	1,1±0,03	1,1±0,03	1,1±0,02
			P3		1,1±0,02	1,1±0,02		1,1±0,03	1,1±0,02

Eslatma: P1* - ishonarlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan olingan (*- $P<0,05$, ** $P<0,01$, *** - $R<0,001$)

P2* - ishonarlik darajasi davodan oldingi 1 kunga nisbatan olingan

P3* - ishonarlik darajasi davolanishning 30 va 90 - kuni II guruhga nisbatan olingan

Shu bilan birga qonning biokimyoviy tahlili ko'rsatkichlardan biri bo'lgan qondagi triglitseridlar miqdori o'zgarishi kuzatuvimiz davomida quyidagi natijalarga erishildi. Davolashdan oldin ya'ni davolashning birinchi kuni birinchi guruhimizdagi bemorlarda triglitseridlar miqdori $3,3\pm 0,13$ mmol/l ni tashkil etgan bo'lsa, davolashning 30 kuni $3,2\pm 0,11$ mmol/l, 90- kuni esa $3,0\pm 0,1$ mmol/l o'zgarishi kuzatildi. Davolashning 90 kunida qondagi triglitseridlar miqdori

nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada o'zgardi ($P<0,01$). 90 kunlik davolash davomida qondagi triglitseridlar miqdori guruhimizdagi triglitseridlar miqdoriga nisbatan, davolanishning 90- kuni ishonchli darajada o'zgarishi kuzatildi ($P<0,05$). Shu bilan birga YuZLP miqdoridagi o'zgarishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, davolashdan oldin YuZLP miqdori $1,1\pm 0,02$ mmol/l ni tashkil etgan edi, davolash davomida 30- va 90 kuni $1,1\pm 0,02$ mmol/l ni tashkil etdi. Nazorat guruhimizdagi ko'rsatkichga nisbatan davolanishning 90- kuni ishonchsiz darajada o'zgarishi kuzatildi ($P>0,05$). 90 kunlik davolash davomida qondagi YuZLP miqdori guruhimizdagi YuZLP miqdoriga nisbatan, davolanishning 90- kunida xam ishonchsiz darajada o'zgarishi kuzatildi ($P>0,05$).

3.3-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, ikkinchi guruhimizda qondagi umumiy xolesterin miqdori davlashdan oldin $5,4\pm 0,12$ mmol/l tashkil etgan bo'lsa, davolanishning 30 kuni $5,4\pm 0,11$ mmol/l ga, 90 kuniga kelib nazorat guruhimizdagi ko'rsatkichga nisbatan ishonchsiz o'zgarib ya'ni $5,2\pm 0,10$ mmol/l

($P>0,05$) tashkil qildi. 90 kunlik davolash davomida qondagi umumiy xolesterin miqdori guruhimizdagi umumiy xolesterin miqdoriga nisbatan, davolanishning 90- kunida ham ishonchsiz darajada o'zgarishi kuzatildi ($P>0,05$) (3.3-jadval).

Ushbu guruhimizda qonning biokimyoviy tahlilida triglitseridlar miqdorini ham davolash davomida kuzatdik. Davolashdan oldin triglitseridlar o'rtacha miqdori $3,3\pm 0,12$ mmol/l ni tashkil etgan bo'lsa, davolashning 30 kunidagi tekshiruvlarda $3,2\pm 0,12$ mmol/l ko'rsatkichlarga erishildi, ammo davolashning 90 kuniga kelib nazorat guruhimizdagi ko'rsatkichga nisbatan 1,43 barobarga o'zgarib $3,0\pm 0,10$ mmol/l tashkil qilib ishonchli o'zgarganligi aniqlandi ($P<0,01$). 90 kunlik davolash davomida qondagi triglitseridlar miqdori guruhimizdagi triglitseridlar miqdoriga nisbatan, davolanishning 90- kuni ishonchli darajada o'zgarishi kuzatildi ($P<0,05$).

Shu bilan birga YuZLP miqdoridagi o'zgarishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, davolashdan oldin YuZLP miqdori $1,1\pm 0,03$ mmol/l ni tashkil etgan edi, davolash davomida davolashning 30 kuni esa o'zgarishsiz $1,1\pm 0,03$ mmol/l ni, davolashning 90 kuni esa $1,1\pm 0,02$ mmol/l ($P>0,05$) ni tashkil etdi. 90 kunlik davolash davomida qondagi YuZLP miqdori guruhimizdagi YuZLP miqdoriga nisbatan, davolanishning 90- kunida xam ishonchsiz darajada o'zgarishi kuzatildi ($P>0,05$) (2-jadval).

Yuqoridagi olingan natijalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkunki ikkala guruhimizda tavsiya etilgan davolash davomida lipid spektrida ko'rsatkichlarida ijobiy tomonga o'zgarishga erishildi.

IV BOB. BO‘LMACHALAR FIBRILLYATSIYASI BOR O‘PKA GIPERTENZIYASI BILANKASALLANGAN BEMORLARDA GEMOSTAZ TIZIMINI TEKSHIRUV NATIJALARI

4.1. Turli xil ko‘rinishdagi davolash muolajalaridan keyin trombotsitlar agregatsiyasi faolligi va gemostazdagi o‘zgarish dinamikasi

Bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi va o‘pka gipertenziyasi bilan kasallangan bemorlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri gemostaz tizimini o‘rganishdir. Gemostaz- biologik tizim bo‘lib qonni suyuq agregat holatida saqlab turadigan va tomir devori shikastlangan joyida tezlik bilan tromb shakllanishiga olib keladigan, qat’iy tartibga solingan jarayonlar ketma-ket ekanligi qator olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan. [49; 36-42-b.]. Jalal D.I. va boshq. BF va YO‘G bilan kasallangan bemorlarda ikki tendensiya mavjudligini ko‘rsatib o‘tgan, protrombotik va gemorragik, ammo bu qarama qarshi gemostatik kasalliklarning birga kelishi sabablari aniq emas. [50; 60-34-b.] Hozirgi vaqtda yurak faoliyatida pasayishi patogenezning muhim mexanizmlaridan biri qon ivish(gemostaz) tizimidagi buzilishlar bo‘lib, yurak va boshqa a‘zolarida mikrosirkulyatsiyaning buzilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan tajriba va klinik ko‘rinishga xos bo‘lgan ma’lumotlar olingan [40; 57-74-b.].

Fan va texnika rivojlanib borgan sayin barcha sohalarda bo‘lgani kabi tibbiyotda ham bir qator ilg‘or siljishlar kuzatilmoqda. Jumladan tashxislash amaliyoti rivojlanib borishi bilan jamiyatimizda nisbatan kam uchrovchi ba’zi bir kasalliklar sezilarli ko‘payayotganligi kuzatmoqdamiz. Shu nuqtai nazarda o‘pka gipertenziyasi kasalligini nisbatan ko‘p aniqlanayotganligi nafaqat yuqorida aytib o‘tilgan, balki birlamchi yurak patologiyalari bilan bir qatorda, qandli diabet, giperlipidemiya, semizlik, gipertoniya kasalligi, sistemali kasalliklar tufayli paydo bo‘ladigan ikkilamchi kasalliklar bilan ham izohlanadi.

Aynan mana shu jarayonni chuqurlashtiradigan, jadallashtiradigan va pirovardda muqarrar yurak etishmovchiligiga olib boradigan omil bu gemostaz

tizimida bo'ladigan buzilishlardir. Shubhasiz BF va YO'G bemorlarini davolashda, ya'ni mikrosirkulyatsiyadagi buzilishlarni muvofiqlashtirishda qon reologiyasini yaxshilovchi, antikoagulyant va antiagregant dori vositalarining o'zni beqiyosdir.

Shunday ekan biz tadqiqotlarimiz mobaynida BF va YO'G bilan kasallangan bemorlarda gemostaz tizimining bir qator ko'rsatkichlarini o'rganish, antiagregant tarkibli dori vositalarini har xil tadqiqot guruh bemorlarda qo'llash va ularni samaradorligini solishtirish, shu bilan birga mazkur davolash fonida yurak faoliyatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borishni lozim topdik.

Yuqoridagi o'zgarishlarni hisobga olib bemorlarni davolashda, davolash standartiga antiagregant dori vositalari kiritilgan. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida BF va YO'Gni davolashda turli xil antiagregant dori vositalari qo'llanib kelinmoqda. Shunga asoslanib kuzatuvimizdagi ikkita guruhimizdagi bemorlarda tavsiya etilgan davo muolajalari vaqtida, biz XMM va TQFV ko'rsatkichlarini guruhlarda solishtirib o'rgandik. Bunga ko'ra bemorlarda laborator va instrumental, klinik tekshiruvlar davolashdan oldin ya'ni davolashning 1 kuni, davolashdan keyin 30 va 90 kunlari tekshirildi.

Kompleks davolash davomida birinchi guruhdagi bemorlarda XMM va TQFV ko'rsatkichlarida kuzatilgan o'zgarishlar 4.1-jadvalda berilgan.

4.1-jadvaldagi olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi asosiy guruhimizdagi bemorlarda XMM faolligi davolashdan oldin $2,1 \pm 0,01$ ni tashkil etgan edi. Davolashning 30 kuniga kelib ushbu ko'rsatkich $2,5 \pm 0,01$ ga, 90 kuni esa $3,2 \pm 0,02$ gacha o'zgarishi davom etdi. Davolash davomida nazorat guruhiga nisbatan 30-va 90- kunlari ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$) (3-jadval). 90 kunlik davolash davomida XMM faolligi guruhimizdagi bemorlarga nisbatan, davolanishning 30- va 90- kunlari ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$)

Tromboplastinning qisman faollashtirilgan vaqtida (TQFV) ko'rsatkichida ham o'zgarishlar aniqlandi. Davolashning birinchi kuni olib borilgan tadqiqotlarda TQFV $29,2 \pm 0,37$ ko'rsatkichni tashkil qilgan edi.

Davolashning 30 kuni $30,0 \pm 0,41$, 90 kuni esa $31,1 \pm 0,34$ gacha o'zgarishi kuzatildi. Nazorat guruhiga nisbatan TQFV 30- va 90- kuni ishonchsiz o'zgarish kuzatildi ($P > 0,05$). 90 kunlik davolash davomida (TQFV) guruhimizdagi bemorlarga nisbatan, davolanishning 90- kuni ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$).

Qon ivish vaqtida (QIV) ham yuqoridagi o'zgarishlarga xos o'zgarishlar kuzatildi. Unga ko'ra nazorat guruhiga nisbatan QIV boshlanishi bemorlarda kasallikning 30 va 90 kunlari tekshirilganda davolashdan oldingi ko'rsatkichga nisbatan ijobiy tomonga o'zgarishi kuzatildi. Davolashning 30 kuni QIV boshlanishi $3,1 \pm 0,01$, 90 kuni esa $3,2 \pm 0,03$ ligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich ishonchli o'zgarganligi kuzatildi ($P < 0,01$). 90 kunlik davolash davomida (QIV) guruhimizdagi bemorlarga nisbatan, davolanishning 90- kuni ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$).

QIV tugashi bemorlarda kasallikning 30 va 90 kunlari tekshirilganda davolashdan oldingi ko'rsatkichga nisbatan ijobiy tomonga o'zgarishi kuzatildi. Davolashning 30 kuni QIV tugashi $4,25 \pm 0,04$, 90 kuni esa $4,5 \pm 0,07$ ligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich nazorat guruhiga nisbatan ishonchli o'zgarganligi kuzatildi ($P < 0,05$). 90 kunlik davolash davomida (QIV) guruhimizdagi bemorlarga nisbatan, davolanishning 90- kuni ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P < 0,01$).

Nazorat ostiga olingan ikkala guruhdagi bemorlarda regulyar ravishda antiagregant va antikoagulyant dori vositalari ichib turishi QIV ko'rsatkichlarini me'yoriy darajada turishiga sabab bo'ldi va giperkoagulyatsiya xolati kuzatilmadi.

Nazorat ostiga olingan ikkinchi guruhimizdagi bemorlarda kompleks davolash tavsiya etilgandagi XMM faolligi, gemostazdagi o'zgarishlar dinamikasi (3- jadvalda) keltirilgan.

Ikkinchi nazoratdagi guruhimizda XMM faolligi davolashdan oldin $2,13 \pm 0,06$ ni tashkil qildi. Davolashning 30 kuni esa ushbu ko'rsatkich $2,3 \pm 0,06$, 90 kuni esa $3,14 \pm 0,07$ ni ($P < 0,01$) tashkil etdi. 90 kunlik davolash davomida XMM faolligi guruhimizdagi bemorlarga nisbatan, davolanishning 30- va 90- kunlari

ijobiy tomonga ishonchli o'zgarishi kuzatildi ($P<0,01$) (4.1-jadval).

4.1-jadval

Bo'lmachalar fibrillatsiyasi va o'pka gipertenziyasi bilan kasallangan bemorlarda gemostaz tizimidagi o'zgarishlar dinamikasi

Gemo-s taz	Nazorat guruhi (n=30)	1-guruh (Tavsiya kilingan davo) (n=55)				2-guruh (Ananaviy davo) (n=55)		
		1 kun		30 kun	90 kun	1 kun	30 kun	90 kun
XMM	1,2±0,01	P1	2,1±0,01**	2,5±0,01**	3,2±0,02**	2,13±0,06*	2,3±0,06*	3,14±0,07**
		P2	2,1±0,01	2,5±0,01*	3,2±0,02**	2,13±0,06	2,3±0,06*	3,14±0,07**
		P3		2,5±0,01	3,2±0,02		2,3±0,06	3,14±0,07
TQFV, sek	30,8±0,51	P1	29,2±0,37*	30,0±0,41	31,1±0,34	29,4±0,40*	29,6±0,53*	30,2±0,79
		P2	29,2±0,37	30,0±0,41	31,1±0,34**	29,4±0,40	29,2±0,37	30,0±0,41
		P3		30,0±0,41	31,1±0,34		29,2±0,37	30,0±0,41
QIV boshlanishi	2,4±0,05	P1	2,9±0,04*	3,1±0,01**	3,2±0,03**	3,1±0,01**	3,1±0,06**	3,2±0,08**
		P2	2,9±0,04	3,1±0,01**	3,2±0,03**	3,1±0,01	3,1±0,06	3,2±0,08
